RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARI AMALIYOTI TAHLILI.....	702
Kazakbayev S.B.	
BOG'DORCHILIK TARMOG'NI RIVOJLANTIRISHDA SUV TEJAMKOR TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	705
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
MHXS ASOSIDA SUG'URTA KOMPANIYALARINING BUGALTERIYA HISOB VA MOLIYAVIY TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI.....	709
Alimov Baxodir Batirovich	
QISHLOQ XO'JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA DAVLATNING IMTIYOZLI MOLIYALASHTIRISH MYEXANIZMLARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	718
Xolmatov Sanjarbek Xojimamatovich	
MAHALLA TIZIMIDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	724
Berkinov Bozorboy Berkinovich	
XALQARO TURIZM BOZORIDA MICE TURIZMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH JARAYONLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	728
Fayyoza Xalimova Nafasovna	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA MIJOZLARGA YO'NALTIRILGAN BIZNES JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISH AMALIYOTI.....	733
Azimov Asrorjon Muzaffarjonovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANDLIKNI LEGALLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI.....	737
Xalimbetov Farxad Bagibekovich	



TIJORAT BANKLARINING BIZNES EKOTIZIMI MUAMMO VA YECHIMLAR.....	742
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI YALPI HUDUDIIY MAHSULOT XAJMIGA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARNING TA'SIRI	749
Sultanov Anvar Abdullaevich	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA QURILISH SANOATINING IQTISODIY HOLATI.....	754
Axmedova Sanobar Ikrom qizi, Davlatov Ahmadjon Anvarbek o'g'li	
DAVLAT XUSUSIY SHERIKCHILIK LOYIHALARIDA VUJUDGA KELADIGAN RISKLARGA QARSHI UZOQ MUDDATLI IQTISODIY STRATEGIYALAR	760
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
MODERN MODELS OF SALES LOGISTICS IN THE SERVICE SECTOR: MARKETING ASPECT AND AREAS FOR IMPROVEMENT	764
Mamatkulova Shoir Djalolovna	
РОЛЬ ПЛАНИРОВАНИЯ И ПРОГНОЗИРОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ОРГАНИЗАЦИИ ФИНАНСОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	769
Ахмедова Азиза Тохировна, Зайналов Ж.Р.	
ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА КАК ОСНОВА ФИНАНСОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ.....	774
Айматова Фарид Хуразовна	
XORIJIY MOLIVAVIY RESURLAR VA ULARNING IQTISODIY O'SISH SIFATINI TA'MINLASHDAGI O'RNII	778
Xomidova Kamola G'olib qizi	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA TO'LOV QOBILIYATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ICHKI BOSHQARUV INSTRUMENTLARINI TAKOMILLASHTIRISH	783
Xattabov Murodulla Batirovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	788
Hakimova Nozimaxon Sobirjon qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH KORXONALARIDA KORPORATIV-IJTIMOIIY MAS'ULIYAT HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	795
Murotkosimov Shoxrux Abdusalimovich	
ТЕНДЕНЦИИ ИЗМЕНЕНИЯ ВАЛОВОГО ВНУТРЕННЕГО ПРОДУКТА УЗБЕКИСТАНА ЗА ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ.....	803
Ишонкулова Феруза Асатовна	
CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	808
Sadinov Aziz Ziyadullayevich	
BOJXONA BOSHQARUVIDA RAQAMLASHTIRISHNING XALQARO TAJRIBASI	814
Radjapova Latofat Sardorovna	
MILLIY IQTISODIYOTDA SANOAT KORXONALARI RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI	821
Abdullayeva Madina Kamilovna	
UY-JOY QURILISHI SOHASIGA ESKROU MEXANIZMINI JORIY ETISH ORQALI ULUSHDORLAR MABLAG'LARINI HIMOYA QILISH ISTIQBOLLARI	827
Nigmatov Akbarjon Anvarovich	
TASHQI SAVDO BALANSINI MUVOZANATLASHTIRISH	831
Rahimov Eshmurod Normurodovich, Misliddinov Ikromjon Kamoliddin o'g'li	
DON VA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING YEVRQA TAJRIBASI	837
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li	
RAQAMLI SUG'URTA (INSURTECH) EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHA TLARI.....	842
Nozimov Eldor Anvarovich	
MAHALLIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ASOSIDA IMPORT O'RNINI BOSUVCHI MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH STRATEGIYASI	847
Sobitova Ra'no Solidjonovna	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI.....	850
Raxmonov Aziz Iskandarovich	
COST ANALYSIS IN FRUIT AND VEGETABLE PROCESSING PLANTS.....	855
Rahmatullayev Mirjalol Khatam ogli	
OLIY TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH TIJORAT SIRINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	861
Butayev Dilshod Eshbekovich	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ОБЛАЧНЫЕ БУХГАЛТЕРСКИЕ СИСТЕМЫ: НАДЁЖНОСТЬ ОТЧЁТНОСТИ И КИБЕРБЕЗОПАСНОСТЬ.....	867
Бозорова Озода Рахимовна	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANKLARNING CHAKANA KREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI	872
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
XALQARO STANDARTLARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDA AUDITORLAR VA KORXONALAR UCHUN AMALIY TAVSIYALAR.....	877
Ibragimov Azizbek Keldibek o'g'li	



XALQARO STANDARTLARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDA AUDITORLAR VA KORXONALAR UCHUN AMALIY TAVSIYALAR

Ibragimov Azizbek Keldibek o'g'li

University of business and science Toshkent filiali

Iqtisodiyot mutaxassisligi magistranti

Email:ibragimovagmail9997.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalarda Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XMHFS) va Xalqaro audit standartlari (XAS)ni joriy etish jarayonining tashkiliy, metodologik va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda XMHFSga muvaffaqiyatli o'tishning asosiy omillari sifatida strategik rejalashtirish, malakali kadrlarni tayyorlash, ichki nazorat tizimini takomillashtirish, axborot tizimlarini kompleks baholash hamda zamonaviy audit metodlaridan, xususan, ma'lumotlar tahlili (Data Analytics) vositalaridan foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimlarining auditor kasbiy tavakkalchiligiga ta'siri, raqamli muhitda auditorning vazifalari va ekspertlardan foydalanish zarurati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari korxona va auditor o'rtasidagi ochiq hamkorlik, proaktiv boshqaruv yondashuvi hamda o'zaro ishonchning globallashtirish sharoitida xalqaro standartlarni samarali joriy etishdagi hal qiluvchi omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XMHFS), Xalqaro audit standartlari (XAS), audit, strategik rejalashtirish, ichki nazorat tizimi, avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimlari, kasbiy tavakkalchilik, ma'lumotlar tahlili (Data Analytics), korporativ boshqaruv, hamkorlik.

Abstract. This article examines the organisational, methodological, and practical aspects of implementing International Financial Reporting Standards (IFRS) and International Standards on Auditing (ISA) within enterprises. The study identifies strategic planning, professional staff training, enhancement of the internal control system, comprehensive assessment of information systems, and the application of modern audit techniques, particularly Data Analytics, as key success factors in the transition to IFRS. Special attention is given to the impact of automated accounting systems on the auditor's professional risk, the auditor's responsibilities in a digitalised environment, and the necessity of engaging experts. The findings emphasise that open cooperation, a proactive management approach, and mutual trust between the company and the auditor are critical determinants for the effective implementation of international standards in a globalised economy.

Key words: International Financial Reporting Standards (IFRS), International Standards on Auditing (ISA), audit, strategic planning, internal control system, automated accounting systems, professional risk, data analytics, corporate governance, cooperation.

Аннотация. В статье исследуются организационные, методологические и практические аспекты внедрения Международных стандартов финансовой отчётности (МСФО) и Международных стандартов аудита (МСА) на предприятиях. В качестве ключевых факторов успешного перехода на МСФО рассматриваются стратегическое планирование, подготовка квалифицированных кадров, совершенствование системы внутреннего контроля, комплексная оценка информационных систем, а также применение современных методов аудита, включая анализ данных (Data Analytics). Особое внимание уделяется влиянию автоматизированных бухгалтерских систем на профессиональный риск аудитора, задачам аудитора в условиях цифровой трансформации и необходимости привлечения экспертов. Результаты исследования подчёркивают, что открытое сотрудничество, проактивный подход к управлению и взаимное доверие между компанией и аудитором являются решающими факторами успешного внедрения международных стандартов в условиях глобализации.

Ключевые слова: Международные стандарты финансовой отчётности (МСФО), Международные стандарты аудита (МСА), аудит, стратегическое планирование, система внутреннего контроля, автоматизированные бухгалтерские системы, профессиональный риск, анализ данных (Data Analytics), корпоративное управление, сотрудничество.



KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiyotda moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, solishtiriluvchanligi va ishonchligi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XFHS) va xalqaro audit standartlari (MAS) butun dunyo bo'ylab biznes yuritish tilini uyg'unlashtirib, investorlar, kreditorlar hamda boshqa manfaatdor tomonlar uchun ishonchli va taqqoslanadigan ma'lumotlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Biroq ushbu standartlarni nazariy hujjat darajasidan amaliy faoliyatning ajralmas qismiga aylantirish murakkab va mas'uliyatli jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uning asosiy ishtirokchilari — korxonalar va auditorlar — o'rtasidagi samarali hamkorlik, ochiqlik va o'zaro tushunishga tayanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Asosiy vositalar auditini takomillashtirish masalalari A.Z. Avlokulov, R.D. Dusmuratov, A.K. Ibragimov, Sh.I. Ilxomov, I.N. Ismanov, N.F. Karimov, Z.T. Mamatov, I.N. Qo'ziev, B.I. Xamdamov, N.Sh. Xajimuratov hamda Q.X. Xotamovlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan.

Shu bilan birga, asosiy vositalar auditining zamonaviy va kompleks takomillashtirilgan usullari mazkur adabiyotlarda yetarli darajada tizimli yoritilmaganligini qayd etish mumkin. Bu esa mazkur yo'nalishda qo'shimcha ilmiy izlanishlar olib borish zaruratini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, statistik tahlil hamda taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Korxona rahbariyati uchun XFHSga o'tish oddiygina buxgalteriya qoidalarini yangilash emas, balki butun tashkilot faoliyatini va boshqaruv madaniyatini xalqaro talablarga moslashtirish jarayonidir. Ushbu jarayonning dastlabki va eng muhim bosqichi strategik rejalashtirish hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Avvalo, rahbariyat ushbu o'zgarishning ahamiyati va uzoq muddatli afzalliklarini butun jamoaga aniq va tushunarli tarzda yetkazishi zarur. XFHS nafaqat hisobot berish vositasi, balki operatsion samaradorlikni oshirish, aktivlarni yanada samarali boshqarish hamda global bozorga chiqish imkoniyatini kengaytiruvchi muhim instrument hisoblanadi. "Nima uchun?" degan savolga asosli javob shakllantirilmasa, loyiha amalga oshirilish jarayonida ma'lum darajadagi ichki qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Ikkinchidan, mazkur jarayon strategik loyiha sifatida ko'rilishi va uni boshqarish uchun yuqori darajadagi mas'ul shaxs — loyiha menejeri tayinlanishi lozim. U kompaniya miqyosida ishchi guruhni — moliyachilar, buxgalterlar, IT mutaxassislari, operatsion menejerlar hamda zarurat bo'lsa marketing bo'limi vakillarini birlashtirishi kerak. Chunki XFHSning ta'siri faqat moliya bo'limi bilan cheklanmaydi. Tashqi maslahatchilar, ayniqsa murakkab yo'nalishlar (masalan, biznesni birlashtirish va moliyaviy instrumentlar hisobi) bo'yicha, o'z tajribasi va bilimlari bilan muhim hissa qo'shishi mumkin.

Strategik reja ishlab chiqilgach, "Hozir qayerdamiz?" degan savolga javob topish zarur. Buning uchun "tafovutlar tahlili" (gap analysis) amalga oshiriladi. Mazkur tahlil milliy buxgalteriya qoidalarini bilan XFHS talablari o'rtasidagi muhim farqlarni aniqlash va tizimli ravishda ro'yxatga olishdan iborat. Masalan, asosiy vositalarni qayta baholash imkoniyati, moliyaviy ijara shartnomalarini tan olish mezonlari yoki daromadlarni tasniflash usullaridagi farqlar asosiy tafovutlar qatoriga kirishi mumkin.

Shu bilan birga, mavjud axborot tizimlari chuqur baholanadi. Amaldagi buxgalteriya dasturi yangi talablarni to'liq qondiradimi, degan savolga javob berilishi kerak. Ko'plab hollarda standart modullarni yangilash yetarli bo'lmaydi va dasturiy ta'minotni sezilarli darajada moslashtirish yoki yangi tizimga o'tish zarurati yuzaga keladi. Ushbu bosqichga yetarlicha e'tibor qaratmaslik loyiha samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Eng puxta reja va zamonaviy texnologiyalar ham, agar ularni qo'llay oladigan malakali mutaxassislar mavjud bo'lmasa, kutilgan natijani bermasligi mumkin. Shu sababli xodimlarni muntazam o'qitish va ularning malakasini oshirish loyihaning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Xodimlar nafaqat yangi qoidalarni bilishlari, balki ularning mazmun-mohiyati va maqsadini ham chuqur anglashlari zarur.

Treninglar korxona faoliyatiga bevosita daxldor bo'lgan standartlarga, xususan MAS 16 "Asosiy vositalar", MAS 15 "Daromad", MAS 37 "Zaxiralar va shartli majburiyatlar" kabi me'yoriy hujjatlarga qaratilishi maqsadga muvofiq. Xalqaro sertifikatlash dasturlari (masalan, DipIFR)ni rag'batlantirish nafaqat xodimlarning individual salohiyatini oshiradi, balki butun korxonaning professional obro'sini mustahkamlaydi.



XFHS talablariga muvofiq ravishda ichki nazorat tizimini (INT) qayta ko'rib chiqish hamda yangi hisob siyosatini ishlab chiqish zarur. Bu jarayon daromadlarni tan olish tartibini, aktivlarni baholash metodikasini, operatsiyalarni qayd etish va tasdiqlovchi hujjatlarni saqlash tartibini takomillashtirishni o'z ichiga oladi. Mustahkam ichki nazorat tizimi nafaqat XFHS talablariga rioya etishni ta'minlaydi, balki kelgusidagi audit jarayonini ham ancha samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Zamonaviy auditorning roli oddiy tekshiruvchidan ko'ra kengroq mazmun kasb etib, u korxonaning ishonchli maslahatchisi va strategik hamkori sifatida namoyon bo'lmoqda. Auditorning dastlabki vazifasi MAS 315 talablariga muvofiq ravishda korxonani, uning biznes-muhitini, operatsion xususiyatlarini hamda nazorat tizimini chuqur o'rganish va potentsial risklarni aniqlashdan iborat.

Auditor korxona bilan ochiq va doimiy muloqotda bo'lishi zarur. U loyiha boshidanoq kutilayotgan jarayonlar, talablar va majburiyatlar haqida aniq tushuntirish berishi lozim. "Gap analysis" natijalarini birgalikda muhokama qilish auditor uchun korxonaning nisbatan zaif jihatlarini aniqlash va ularni dastlabki bosqichlarda bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar berish imkonini yaratadi. Bu yondashuv reaktiv emas, balki proaktiv yondashuv sifatida baholanadi.

Zamonaviy audit amaliyoti auditorlardan an'anaviy usullar bilan bir qatorda innovatsion texnologiyalardan foydalanishni ham talab etadi. Ma'lumotlar tahlili (Data Analytics) vositalari yordamida auditor katta hajmdagi ma'lumotlar to'plamini to'liq qamrab olib, g'ayritabiiy og'ishlar va tendensiyalarni aniqlashi mumkin. Bu audit sifatini oshirish va asosiy riskli yo'nalishlarga e'tiborni qaratish imkonini beradi.

Professional mustaqillik va axloqiy me'yorlarga rioya qilish auditor faoliyatining ajralmas tamoyillaridir. Auditor maslahat berish jarayonida ham o'zining obyektivligi va mustaqilligini saqlab qolishi shart. Murakkab masalalar (masalan, murakkab aktivlarni baholash) yuzaga kelganda, mustaqil ekspertlarni jalb etish tavsiya etiladi va ularning xulosalari sinchiklab tahlil qilinishi lozim. Doimiy ravishda bilimlarni yangilab borish auditorning kasbiy majburiyatidir.

Hozirgi kunda ko'plab korxonalarda buxgalteriya hisobining bir nechta dasturiy tizimlari qo'llanilmoqda. Masalan, yangi joriy etilgan tizim ayrim hollarda avvalgi ma'lumotlarning integratsiyasida texnik qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli auditor korxonada aynan qaysi axborot tizimi qo'llanilayotganini va uning funksional imkoniyatlarini aniq bilishi zarur.

Avtomatlashtirilgan iqtisodiy axborot tizimidan foydalanadigan xo'jalik yurituvchi subyektlarda auditor rejalashtirish, tahlil qilish, nazorat jarayonini baholash hamda yakuniy xulosa berishda kompyuter tizimlari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

1-jadval. Asosiy vositalar harakatiga oid ma'lumotlarining kompyuter muhitida tashkil etilishining auditorning kasbiy tavakkalchiligiga bog'liqligi¹

Auditorlik tavakkalchiligi quyidagi xolatlarida ortadi	Auditorlik tavakkalchiligi quyidagi xolatlarida kamayadi
1. Kompyuter muhiti markazlashtirilmagan	1. Avtomatlashtirish tizimlari litsenziyalangan
2. Kompyuter uskunalarining geografik tarqoqligi mavjud	2. Auditorlar uchun maxsus ishlangan dasturiy ta'minot tufayli nazoratning ayrim turlarini chuqurlashtirish imkoniyati mavjud
3. Buxgalteriya xodimlarining axborot texnologiyalari sohasidagi bitim darajalari yetarli emas	3. Dasturiy ta'minotning maxsus nazorati mavjud
4. Kompyuter muhitining amal qilishida ichki nazorat mavjud emas	4. Xo'jalik yurituvchi subyektning axborot siyosati uning rahbariyati tomonidan omilkorlik bilan belgilanadi
5. Kompyuter tizimiga ruxsat etilmagan kirishni cheklash bo'yicha zaruriy choralar mavjud emas	5. Barcha bo'linmalar, filiallar va boshqa alohida bo'linmalar, shu'ba korxonalar kompyuterning yagona muhitida ishlaydi, yagona zamonaviy dasturiy ta'minoti qo'llaydi
	6. Xo'jalik yurituvchi subyektning axborot siyosati kompyuter tizimining asosiy foydalanuvchilari bilan kelishilgan
	7. Xo'jalik yurituvchi subyektning kompyuter tizimi rivojining uzoq muddatli rejasi mavjud

Mazkur holatda auditorning vazifalari quyidagilardan iborat:

- kompyuter muhiti ta'sir ko'rsatadigan hisobga olish va ichki nazorat tizimini barcha muhim jihatlarini bo'yicha yetarli darajada tushunish;
- kompyuter muhitining tavakkalchilikni baholash jarayoniga ta'sirini aniqlash va baholash;
- auditni rejalashtirish, boshqaruv testlarini o'tkazish hamda mustaqil audit tartib-qoidalarini bajarish.

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Agar auditor yuqorida ko'rsatilgan bilim va ko'nikmalarga yetarli darajada ega bo'lmasa, axborot texnologiyalari sohasidagi ekspert xizmatidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Qo'llanilayotgan kompyuter tizimini baholash jarayonida ekspert jalb etilgan hollarda quyidagilarga rioya qilinishi lozim:

- ekspertni tayinlash va uning ishidan foydalanish bilan bog'liq barcha jarayonlar "Ekspert ishidan foydalanish" audit standarti talablariga to'liq muvofiq bo'lishi shart;
- auditor ekspert ishini nazorat qilish va baholash uchun xo'jalik yurituvchi subyektning kompyuter tizimi haqida yetarli bilimga ega bo'lishi hamda audit jarayonida yetakchi rolini saqlab qolishi zarur;
- ekspert asosan axborotga ishlov berish tizimini baholaydi;
- auditor esa ushbu tizim asosida shakllantirilgan hisobotlarning ishonchligini baholaydi.

Audit tashkiloti tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subekt moliyaviy hisobotlari bo'yicha bildirilgan fikr va shu asosda tuzilgan auditorlik xulosasi uchun to'liq javobgardir.

Tekshiruv jarayonida ekspert auditorra quyidagi hollarda yordam ko'rsatishi mumkin:

- a) kompyuter tizimining umumiy ishonchligini baholashda;
- b) xo'jalik yurituvchi subyekt kompyuter tizimida qo'llanilayotgan buxgalteriya dasturiy ta'minotining qonuniy sotib olinganligi va litsenziya talablari asosida foydalanilayotganligini aniqlashda;
- v) hisob-kitob algoritmlarining to'g'riligini tekshirishda;
- g) auditor uchun zarur bo'lgan tahliliy umumlashtirilgan hisob-kitoblar va hisobot registrlarini shakllantirishda.

Xo'jalik yurituvchi subyekt buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining kompyuter muhitida tashkil etilishi auditorning kasbiy tavakkalchiligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bunday sharoitda tavakkalchilik darajasi nazorat tizimining samaradorligiga qarab ortishi yoki kamayishi mumkin.

Kompyuter boshqaruvining umumiy vositalari kompyuter tizimi ustidan nazorat chegaralarini belgilash va ichki nazorat maqsadlariga erishilganligi yuzasidan maqbul ishonch darajasini ta'minlashga qaratilgan.

Boshqaruvning umumiy vositalari quyidagilarni o'z ichiga oladi (1-rasm).



1-rasm. Kompyuter boshqaruvining umumiy vositalari tarkibi²

2 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot ma'lumotlarini elektron audit qilish jarayonida auditor kompyuter tizimidagi ma'lumotlar ustidan nazorat qay darajada yo'lga qo'yilganligini, shuningdek, axborotlarning shakllantirilishi va chiqarilishi ustidan ichki nazorat mexanizmlari qanchalik samarali ishlayotganligini aniqlashi lozim.

Xalqaro standartlarni joriy etish jarayoni korxona va auditor o'rtasidagi o'zaro ishonch va professional hurmatga asoslangan murakkab, biroq yuqori qiymatga ega jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayon davomida korxona o'z ichki boshqaruv tizimini takomillashtiradi, global bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda investorlar ishonchini mustahkamlaydi.

Auditor esa o'z kasbiy tajribasini boyitadi, mijozining rivojlanish jarayonida professional hissa qo'shadi va o'zining kasbiy obro'sini yanada mustahkamlaydi.

Korxona va auditorning o'zaro yaqin hamkorligi, ochiq muloqoti hamda birgalikdagi sa'y-harakatlari globallashtirish sharoitida xalqaro standartl

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Avlokulov A.Z. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida investitsion mulk hisobi va auditini takomillashtirish: monografiya. – Toshkent: Toshkent Moliya instituti, 2008. – 160 b.
2. Dusmuratov R.D. Auditorlik faoliyati: nazariya, uslubiyot va amaliyot: monografiya. – Toshkent: Moliya nashriyoti, 2007. – 276 b.
3. Karimov N.F. Tijorat banklarida ichki audit: monografiya. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, 2006. – 262 b.
4. Mamatov Z.T. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot auditini o'tkazishni takomillashtirish masalalari: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2005. – 40 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
